BOLALARDA GASTRODUODENAL YARA KASALLIGINING KECHISHIDA VEGETATIV NERV TIZIMI DISFUNKSIYASINING AHAMIYATI

Abduraimova Munisa Dilshodbek qizi[1],
Urumboyeva Zamira Olimjonovna[2]
[1]Second-year Master's student in Pediatrics, Andijan State Medical Institute
[2]Associate Professor, Department of Hospital Pediatrics, Andijan State Medical Institute

Dolzarbligi. Bolalar orasida oshqozon-ichak tizimi kasalliklari pediatriyaning dolzarb muammolaridan biri bo‘lib, ular orasida oshqozon va o‘n ikki barmoq ichak yara kasalligi alohida o‘rin egallaydi. Helicobacter pylori (HP) yuqishining oshqozon va 12 barmoqli ichak yara kasalligini rivojlanishidagi asosiy omillardan biri sifatida yuqori ahamiyatga ega ekanligini inobatga olgan holda, ushbu infeksiyani samarali davolash infeksionkasalliklar va gastroenterologiya sohasidagi ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, Rossiya olimlarining ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakatning turli hududlarida bolalar orasida HP bilan zararlanish darajasi 41,2% dan 86,3% gacha o‘zgarib turadi. Yevropa mamlakatlarida bu ko‘rsatkich 3,2% dan 48% gacha, AQSHda esa 24% dan 80% gacha yetadi (SH.T Turdiyeva, E.A. Shamansurova 2024). Simpatik va parasimpatik nerv tizimlari o‘rtasidagi muvozanatning buzilishi kasallikning klinik kechishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli yara kasalligi bilan kasallangan bolalarda vegetativ holatni o‘rganish, vegetativ disfunksiya xususiyatlarini aniqlash hamda ularni davolash jarayonida hisobga olish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqot maqsadi. Oshqozon va o‘n ikki barmoq ichak yara kasalligi bilan og‘rigan bolalarda vegetativ nerv tizimining funksional holatini baholash, vegetativ disfunksiya xususiyatlarini aniqlash hamda ularning kasallik klinik kechishi bilan bog‘liqligini o‘rganish.

Material va usullar. Tadqiqotga oshqozon va o‘n ikki barmoq ichak yara kasalligi tashxisi bilan kuzatilgan 12 yoshdan 17 yoshgacha bo‘lgan 24 nafar bola jalb qilindi. Shundan 14 nafari (58,3%) qiz, 10 nafari (41,7%) o‘g‘il bolalarni tashkil etdi. Bemorlarda klinik-anamnestik ma’lumotlar, dispeptik shikoyatlar, vegetativ nerv tizimining funksional holati hamda vegetativ disfunksiya belgilari baholandi. Vegetativ holatni aniqlashda A.M. Veyn so‘rovnomasi, yurak urish chastotasi, arterial qon bosimi va vegetativ simptomlarning klinik ko‘rsatkichlaridan foydalanish nazarda tutildi. Shuningdek, kasallikning klinik belgilari bilan vegetativ buzilishlar

o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilindi. Tadqiqotda bolalarda FGDS tekshiruvi Olympus GIF- XP 180 N apparatida o‘tkazildi.

Natijalar. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, oshqozon va o‘n ikki barmoq ichak yara kasalligi bilan kasallangan bolalarda og‘riq, dispeptik va astenovegetativ sindromlar ustunlik qildi. Klinik belgilar tahlilida 22 nafar (91,7%) bemorda epigastral og‘riq, 15 nafarida (62,5%) ko‘ngil aynishi, 12 nafarida (50,0%) jig‘ildon qaynashi va 10 nafarida (41,7%) ishtahaning pasayishi aniqlandi. Vegetativ nerv tizimi holatini baholashda astenovegetativ buzilishlar yetakchi o‘rin egallab, 18 nafar (75,0%) bemorda tez charchash, 15 nafarida (62,5%) emotsional labillik va 9 nafarida (37,5%) bosh og‘rig‘i kuzatildi. Vegetativ regulyatsiya buzilishlariga xos kaftlarning ortiqcha terlashi 12 nafar (50,0%), yurak urishining tezlashishi va arterial qon bosimining o‘zgaruvchanligi esa 10 nafardan (41,7%) bemorda qayd etildi. Astenovegetativ simptomlar tarkibida tez charchash bosh og‘rig‘iga nisbatan 2 baravar ko‘p uchradi. FGDS natijalarida 6 nafar (25,0%) bemorda oshqozon yarasi, 18 nafarida (75,0%) o‘n ikki barmoq ichak yarasi aniqlanib, duodenal lokalizatsiya 3 baravar ustunlik qildi. Olingan natijalar bolalarda oshqozon va o‘n ikki barmoq ichak yara kasalligining klinik kechishi epigastral og‘riq va dispeptik simptomlar bilan bir qatorda astenovegetativ hamda vegetativ-qon tomir buzilishlariga xos belgilar bilan tavsiflanishini ko‘rsatdi. Bu esa kasallikning klinik manzarasini kompleks baholashda vegetativ nerv tizimi holatini hisobga olish muhimligini asoslaydi.

Xulosa

Bolalarda oshqozon va o‘n ikki barmoq ichak yara kasalligi klinik kechishida og‘riq va dispeptik sindromlar bilan bir qatorda vegetativ disfunksiyaga xos simptomlar ham muhim o‘rin egallaydi. Tadqiqotda astenovegetativ belgilar orasida tez charchash (75,0%) va emotsional labillik (62,5%) ustunlik qilgan bo‘lsa, vegetativ-qon tomir regulyatsiyasiga oid belgilar 41,7–50,0% hollarda kuzatildi. Endoskopik tekshiruvda o‘n ikki barmoq ichak yarasi (75,0%) oshqozon yarasiga (25,0%) nisbatan 3 baravar ko‘p aniqlandi. Olingan natijalar yara kasalligi bilan og‘rigan bolalarda vegetativ simptomlarni muntazam baholash va ularni kompleks klinik tekshiruv tarkibiga kiritish maqsadga muvofiqligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: bolalar, oshqozon yara kasalligi, o‘n ikki barmoq ichak yara kasalligi, vegetativ nerv tizimi, vegetativ disfunksiya